



UO'K: 82.09

DRAMADA SAHNADA KO'RINMAYDIGAN QAHRAMON VA UNING BADIY TALQINI**ГЕРОЙ, НЕ ПОЯВЛЯЮЩИЙСЯ НА СЦЕНЕ В ДРАМЕ, И ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ****THE HERO WHO DOES NOT APPEAR ON STAGE IN THE DRAMA AND HIS ARTISTIC INTERPRETATION****Rustamova Ibodat Ikramovna**

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan dramaturg Sharof Boshbekovning "Eshik qoqqan kim bo'ldi?" dramasi-dagi sahnada ko'rinmaydigan bosh qahramon va uning yaratilishi xususida so'z yuritiladi. Bosh qahramon ma'naviy dunyosi yozuvchi mahorati aspektida tahlil etiladi.

Annotatsiya

В этой статье «Кто постучал в дверь?» драматурга Шарафа Бошбекова, занимающего особое место в узбекской литературе обсуждается главный герой, которого нет в драме, и его творение. Духовный мир главного героя анализируется с точки зрения писательского мастерства.

Abstract

In this article "Who Knocked on the Door?" playwright Sharaf Boshbekov, who occupies a special place in Uzbek literature. The main character, who is not in the drama, and his creation are discussed. The spiritual world of the protagonist is analyzed from the point of view of writing.

Kalit so'zlar: drama, sahnada, qahramon, badiiy, talqin, mahorat, ma'naviyat

Ключевые слова: драматургия, сцена, персонаж, художественный, интерпретация, мастерство, духовность.

Key words: drama, stage, character, artistic, interpretation, skill, spirituality

KIRISH

Dramatik asarda bosh qahramon obrazining ahamiyati muhim sanaladi. Bosh qahramon muallif niyatining ifodalovchisi, asar syujetida aktiv ishtirok etuvchi obraz sanaladi. Shu kungacha yaratilgan badiiy asarlarga nazar tashlasak, har birida o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan bosh qahramon obrazini uchratamiz.

O'zbek dramaturgiyasida ham xalqning sevimli qahramonlariga aylanib qolgan obrazlar talaygina. O'Umarbekovning "Shoshma quyoshi!" dramasi-dagi Sanobar, "Qiyomat qarzi" dagi Sulaymon ota, Sh.Boshbekovning "Temir xotin" dramasi-dagi Qo'chqor singari obrazlar shular jumlasidandir. Bosh qahramon faolligi, mustaqilligi, sahnadagi erkin harakatlari bilan o'ziga xosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biroq Sh.Boshbekovning "Eshik qoqqan kim bo'ldi?" dramasi-dagi sahnada umuman ishtirok etmaydigan bosh qahramon - Rahmatullaning obrazi yaratilgan. Dramada Sh.Boshbekov qo'llagan badiiy usul jahon adabiyotida u qadar yangilik emas. Rus yozuvchisi va dramaturgi Mixail Bulgakov 1934-1935 yillarda yozgan "So'nggi kunlar" (Pushkin) nomli dramasi-dagi original usulni qo'llab, ulug' shoirning tragik obrazini yaratdi. Bu dramaning yaratidishi, muallif mahorati masalasida ilk marotaba ushbu maqolada fikr bildirilayotganligi bilan ilmiy qimmatga egadir. Shuningdek, keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda Aynan shu dramaning lisoniy tadqiqi o'rganildi. [1.]

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Sh.Boshbekov birinchi bo'lib, o'zbek dramaturgiyasida sahnada o'zi ishtirok etmagan bosh qahramon obrazni yaratib beradi. Muallif imkoniyatlari cheklangan dramaturgiya janrida qanday qilib sahnada ishtirok etmagan bosh qahramon obrazini yaratdi? Qanday vositalar yordamida Rahmatulla obrazining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berildi

NATIJALAR

Dramada zamonaviy mavzu yoritilib, qishloqdan kelgan Qulmat va Pirmatning Rahmatullaning uyiga kirib kelishlari tasvirlanadi. Shahar va qishloq kishilarining farqli xarakteri, ruhiy olami ifodalanadi. Insonlar o'rtasida mehr-muhabbat, yaxshilikning qadriga yetish muammolari hal etiladi. Qulmat bilan Pirmat Rahmatullaning uyiga kirib kelishganda, uy qulfsiz, ochiq turgan bo'ladi. Shaharning qoq o'rtasida qulfsiz, egasiz uyning ochiq turishi hatto, qishloqdan kelgan kishilarni ham taajjubga soladi. Uyga ilingan kir-chirlar, uyning tartibsizligi ularning ikkilanishlarini yana oshiradi. Ayni shu vaqtda Rahmatullaning qo'shnisi Nozik kirib kelib, ularni ko'rib hang-mang bo'lib qoladi. Kutilmagan mehmonlarning tashrifi Nozikni dovdiratib qo'yadi. Uyning tartibsizligidan, birovning uyini o'z uyi qilib, kirlarni ilib yuborgan Nozik, o'ng'aysiz holatdan chiqib ketish uchun, bidirlab kirlarni yig'ishtira boshlaydi. "Bizlarnikida. O'lsin har kuni bir dunyo yig'ilib qoladi. Rahmatulla akalarniki bemalolroq deb shu yerda chayib olaman. Bilmayman nimaga gugurt qutiday qilib qurishadi, bu uy o'lgurni". [2.123.]

Nozikning qilgan ishini hazm qila olmay turgan Pirmat Qulmat bilan tortishib ketadi. Pirmat: Ja, bag'ri keng shekilli-da, a? Qulmat: Kim? Pirmat: KallaShunosingni aytaman. Qulmat: Qo'shnicilikda, dada. Pirmat: Himm. Qiyom kaltaning xotini senikiga chiqib mag'zava to'ksa, nima qilarding? Hatto, qishloqdan kelgan, yaxshi-yomonni ko'rgan Pirmat ham Rahmatullaning bag'ri kengligini sira hazm qilolmadi.

MUHOKAMA

Xuddi shu joydan dramaga Rahmatullaning olimlik faoliyatini, uning ish joyidagi do'stlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatib beruvchi, xarakter jihatidan bosh qahramonga mutlaqo o'xshamaydigan, o'z oti o'zi bilan Olim obrazi kirib keladi.

Olim gapga chechan, har qanday sharoitdan ham chiqib ketadigan faqat o'zini o'ylaydigan obrazdir. U dramada Rahmatullaning ish jarayonidagi faoliyatini bayon etib beruvchi obraz sifatida ishtirok etadi. O'zini katta olishi, balandparvoz gaplarni gapirishi, hali sahnaga chiqmagan Rahmatullaning aksi ekanligidan dalolat beradi.

Garchi bosh qahramon sahnada ishtirok etmasa ham, tomoshabin shuurida, ongida ikki qarama-qarshi obraz gavdalanadi. Olimning har bir replikasida, birinchidan, o'zining xarakteri ochilsa, ikkinchidan, Rahmatullaning xarakteri ham shakllanib boradi.

Qulmat frontdosh do'sti Rahmatullani bir ko'rib ketish maqsadida tug'ilgan kun bahonasida qishloqdan shaharga kelgan edi. Uni Shuncha yo'l yurib, keksa otasini ovora qilib olib kelishiga sabab bo'lgan narsa sayohat qilish, aylanish emas edi. Rahmatullaning Qulmatga bo'lgan mehri, Qulmatning unga bo'lgan intiqiligi edi. Frontdagi halolligi, odamgarchiligi, yillar o'tsa ham, Qulmatning yodidan ko'tarilmadi.

Muallif "Tug'ilgan kun" voqeasini drama syujetiga asos qilib oladi. Aynan Shu voqeaning olinishi, birinchidan, turli yoshdagi kishilarning bir yerga to'planishiga yordam bersa, ikkinchidan, bosh qahramonning fazilati tug'ilgan kun munosabati bilan tilga olinadi, uchinchidan, ushbu kunning sababchisi Rahmatullaning qatnashmasligi hammani hayajonga soladi. Garchi ishtirokchilar eshik "tiq" aytsa eshikka qarab, farishtani kutgandek kutib o'tirishadi. Aynan Shu hayajon, intiqilik tomoshabinga ham yuqadi.

Navbatdagi kutishlarning birida Rahmatullaning xotini Nafisa kirib keladi. Nafisa garchi Rahmatullaning xotini bo'lsa ham, bu qulfsiz uyga mehmon edi. O'zaro kelishmovchiliklar tufayli ular birga yashashmas edi. Nafisaning kirib kelishi, kishilarning bir oz ko'nglini ko'tardi. Chunki Nafisa Rahmatullani bu yerdagilardan ko'ra ko'proq biladigan, uni yaxshi va yomon kunida birga bo'lgan, xullas, Shu xonadonninghaqiqiy egasi edi. Nafisaning bu tashrifi Rahmatulla haqida bo'layotgan munozaralarni jonlantirib yubordi. Tanish-notanish kishilar tug'ilgan kun bahonasida hamfikr, hamsuhbat bo'lib qolishdi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Muallif Nozik, Olim munosabatlarida bosh qahramon obraziga dastlabki xarakteristika bergan bo'lsa, Nafisaning replikasi, uning mehmonlar bilan qilgan dialogi yordamida Rahmatullaga nisbatan tortilgan iplarni bir nuqtaga yig'di. Qatnashuvchilarning ichki dunyosini ochib berishda Nafisa tomonidan keltirilgan rivoyat turtki bo'ldi.

“U o'zi qilgan savob ishidan ko'ngli to'lib, odamlarni alqab yashashini o'ylab, o'z qishlog'iga qaytadi. saxiy odamni bu qilgan ishini eshitganlar: “Bekor qilibsiz, odamlarning o'zida insof yo'g ekan, ularga buni hadya qilib bo'lmaydi”, - deyishibdi.

Yillar o'tib kelib qarasa, yana kimdir hukmdoru, yana kimdir xoru zor ekan.

Alamdan ingrab yuboribdi. Saxiy odam! Dunyo ko'ziga zulmat ko'rinib qaytib ketibdi”.³¹

[2.145 -146]

Nafisa keltirgan bu rivoyat uzukka ko'z qo'ygandek, drama syujetiga o'z ta'sirini ko'rsatgan, bosh qahramon Rahmatullaning xarakterini ochish uchun xizmat qilgan. Chunki saxiy odamdagi saxiylikning o'ziga xos ko'rinishi bosh qahramonning xarakterida mavjud. Rahmatulla ham qo'lidan kelganicha odamlarga xizmat qiladi, og'irini yengil qiladi. Hatto uyini ham kimlarningdir halovati uchun bo'shatib beradi.

Ayniqsa, shoirning aytgan quyidagi gapidan Rahmatullaning naqadar tengsiz odam ekanligini bilib olish mumkin.

“Shoir: Kursavoy yozishim kerak edi, uyda sharoit yo'g, mumkin bo'lsa sizlarnikida bir kecha ishlasam, ertalabgacha tugatmasam bo'lmaydi”, deb iltimos qildim. “Mayli, be malol, men do'stimnikida ham yotishim mumkin, sizga xalaqit bermayman, dedilar. [2.145.]

Shoir Rahmatulla uyni bo'shatib bergan kuni pochta.on qiz bilan bo'lganligini, u o'zi esa, qish kuni muzlab qolmaslik uchun kechasi bilan ko'chada u yoqdan, bu yoqqa yurib chiqqanligini hikoya qilib beradi. Nafisaning uyidagi barcha narsalar qo'shnilarinikida ekanligini aytganda, Qulmat bilan Pirmat unda ayb yo'g'ligini tuShunib yetishadi. Hatto Rahmatulla o'zi ishlayotgan institutda kirish imtihoni ola turib, qizining bilimi “etmaydi” deb yiqitganini Nafisa ichki bir iztirob, o'kinch bilan so'zlab beradi. «Shunaqa gaplar, Qulmat aka. Mayli, mening bo'larim bo'ldi. Hech bo'lmasa qizimni saqlab qolay dedim. Shundoq ham dadasi tufayli tengdoshlariga kulgi bo'lib o'sdi. Bog'chada kulishdi, ko'chada kulishdi, maktabda kulishdi. “Ana jinnining qizi kelyapti”, deb... Shuning uchun ketdim, Qulmat aka” [2.149]

Rahmatullaning qilgan bu haqqo'yiligi, fidoyiligi odamlarning ayrimlari tomonidan to'g'ri baholanmasligi tabiiy. Chunki uning bu haqiqatgo'yiligi, odamoxunligini, kamtarinligini hamma ham birdek tuShunmaydi. Chunki jamiyatdagi negativ holatlarni Rahmatulla bilmas ham, u odamlarni o'z manfaatlarining quli bo'lib, haqiqatan ko'z yumib ketishayotganligini ko'rsa ham, undaylarga havas qilmas, o'xshamas, vijdoni bunga yo'l qo'ymas edi. Shuning uchun uning g'ayritabiiy qiliqlari, odatlari, munosabatlari kulgi uyg'otar edi.

Chunki hayotda imtihon olayotgan otaning qizi hech qachon imtihondan yiqilmasligi, o'z gilamini hech kim qo'shnisiga solib bermasligi, qo'shnisi uchun uyini bo'shatib, o'zi sovuqda ko'chada yurmasligi bu g'ayritabiiy hol edi. Shuning uchun uning qizini “jinnining qizi” deb masxara qilishdi. Bu munosabatlar Nafisaning dunyo-dunyosini qorong'i qilib yubordi.

Muallif Rahmatulla xarakterining nozik qirralarini Nafisaning unga nisbatan norozi munosabatlarida tasvirlab beradi. Rahmatullaning o'ziga xosligi ham Shunda. Chunki u hech kim bilan ziddiyatlarga kirishmaydi, o'zining qilgan ishlarini maqtab yurmaydi ham. Dramada ishtirokchilarning tavsiflari asosida bosh qahramon xakteri ochib beriladi. Ularning goh ijobiy, goh salbiy munosabatlari asosida bu narsa amalga oshiriladi. Nafisaning og'zidan chiqayotgan har bir so'z tomoshabinni sergaklikka, ishtirokchilarni cheksiz hayajonga soladi. Chunki Rahmatullaning har bir qadamidan manfaat topish niyatida bo'lgan Olim, Nozik, shoirlar biror marta ham uning ichki dunyosi, muammolari bilan qiziqishmagan, hatto o'ylab ham ko'rishmagan. Nafisaning har biri haqida aytgan gapi ularni hijolatli holatga qo'yadi. O'z-o'zidan dramatik vaziyatlar yaratiladi. Dramada keltirilgan rivoyat har bir tomoshabinni falsafiy mushohadalar yuritishga undaydi. Saxiy odamning inson zoti haqida qayg'urishi, uning baxtli hayot kechirishga bo'lgan intilishi, orzusi juda katta falsafiy qarashni ifodalaydi.

³¹ Ўша китоб, 145-146-б.

Uyga tashrif buyurgan har bir mehmon asar bosh qahramoni Rahmatullanin o'ziga xos fazilatlarini birma bir ochib beradi. Ayniqsa keltirilgan quydagi rivoyat dramaning mazmuniga mos tushadi.

U rivoyatda quyidagicha beriladi.

“Tabiat tabiat bo'lganidan beri bitta-yu bitta dohiyona jo'jiza yaratdiki, bu - Inson! u yerda osmon orasidagi bor mavjudotlar ichida - mehru shavqatga eng tashnasi, eng muhtojidir” [2.146]

Muallif inson zotining tengsiz ne'mat ekanligini, u faqat mehru shafqat bilan tirik ekanligini ta'kidlaydi.

Hammaga mehru shafqat ko'rsatgan Rahmatullaning o'zi mehru shafqatga tashna, ammo u shunchalik ishga, odamlarni qadrlashga o'rganib ketganki, o'z qadr-qimmatini bilmaydi. Odamlar uchun xizmat qilish, ularning og'irini yengil qilish bosh qahramon hayotining mazmuniga aylanib qolgan. Shuning uchun u loqayd munosabatlarni sezmaydi, e'tibor bermaydi.

Dramada tasvirlangan rivoyatdagi saxiy odam obrazi, bosh qahramon Rahmatulla obraziga qiyoslanadi. Shuningdek, Rahmatullaning o'ziga xos ayrim fazilatlarini saxiy odam obrazida ifodalanadi.

“Doimo orol qidirib, odamlarning baxtli, farovon, tinch yashashini orzu qilgan saxiy odam haqida: «Odamlar uni telbaga yo'yishibdi. Hamma uni masxaralar, ustidan kular, saxiy odam esa ezgulik ulashishdan charchamas ekan. Uni odam qatoriga qo'shmay qo'yishibdi”. [2.145]

XULOSA

Ushbu drama muallifi “inson qadri va uning qimmatini kim qanday baholaydi?” – degan savolga javob beradi. Shu kabi konflikt Nafisa va Olim o'rtasida ham bo'lib o'tadi. “Nafisa. Juda to'g'ri - o'tirib! Vaholanki, o'sha ilmiy ishlaringizu dissertatsiyalaringizni yozish uchun o'tirish emas, dunyo kezish kerak edi, tuproq changallab chang yutish kerak edi! Bularni sizning o'rningizga Rahmatulla akam qildilar. Siz esa, o'zingiz aytganingizday, o'tirdingiz! Ha o'tirdingiz; Olim aka!” [2.145]

Olimning o'rinsiz surbetlarcha o'zini himoya qilishidan Nafisaning battar jahli chiqib:

“Rahmatulla akam qay go'rlardan ne azobda qop-qop suyak olib keladilar. Erinmasdan nima, qachon, qaerdaligini tuShuntirib beradilar. Bu kishim bo'lsalar kabinetlarida o'tirib olib dissertatsiya yozadilar. Qarabsizki, olim Baratovich - doktor, sho'rlik Rahmatulla o'sha-o'sha yugurdak! Alam qiladigan joyi qhundaki, Qulmat aka, o'rtog'ingiz xafayam bo'lmaydilar, buni tabiiy hol deb biladilar! Axir bu dahshat emasmi?” [2.146]

Muallif drama syujetining imkoniyatlaridan kelib chiqib, bosh qahramon xarakterini uyning jihozi, ko'rinishi, so'ngra qo'shnilarning unga bo'lgan munosabati, ish joyidagi do'stlarining, jumladan, Olimning munosabatlarida ochib berdi. Drama ishtirokchilarining goh Rahmatullaga bergan baholari, goh o'zlarini himoya qilish uchun qo'llagan munosabatlari asosida dramaturg o'zi ishtirok etmagan bosh qahramon obrazini yaratishga erishdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IKROMOVA G. SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARING LISONIY TADQIQI. FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI. (PD) dissertatsiyasi.. FARG'ONA . 2023.

² Boshbekov SH. Eshik qoqqan kim bo'ldi? –T., 1989, 126-b. Keyingi ko'chirmalar shu manbadan olindi.